## 2019 yil yanvar-dekabr oylarida Samarqand viloyatida sanoat ishlab chiqarishning rivojlanishi

**Raqamlar:**

- 15863,3 mlrd. so‘m — sanoat ishlab chiqarish hajmi
- 53,8 % — sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi
- 60,3 % — iste'mol tovarlarining jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi
- 44,3 % — hududiy korxonalarning jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi

Dastlabki ma’lumotlar bo‘yicha 2019 yil yanvar-dekabr oylarida viloyatdagi korxonalar tomonidan 15863,3 mlrd. so‘mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo‘lib, o‘tgan yilning tegishli davriga nisbatan sanoat ishlab chiqarish indeksi 106,1 % ni tashkil etdi.

Jami sanoat ishlab chiqarish hajmi o‘sishining asosiy omili bo‘lib, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoat - 6,6% ga, gaz bug‘ bilan ta’minlash – 1,5% ga, suv bilan ta’minlash kanalizatsiya 1,0% ga o‘sishi hisoblangan.

### Yanvar-dekabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha sanoat ishlab chiqarish tarkibi

- Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash — 0,7 %
- Ishlab chiqaradigan sanoat — 95,9 %
- Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash — 2,9 %
- Suv bilan ta’minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish — 0,5 %

## Samarqand viloyatida o‘tgan yilning tegishli davriga nisbatan sanoat ishlab chiqarish indeksi




### *Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash*

Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2019 yilning yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 114,5 mlrd. so‘mni yoki jami ishlab chiqarilgan mahsulotlari hajmining 0,7 % ni tashkil etdi.



| *shundan:* | ***Mlrd. so‘m*** | ***Jamiga nisbatan ulushi %*** |
|---|---|---|
| ko‘mir, lignit, neft va tabiiy gaz qazib olish | 0,3 | 0,3 |
| tog‘-kon sanoatining boshqa faoliyatlari | 114,2 | 99,7 |




***Ishlab chiqaradigan sanoat (qayta ishlash sanoati)***

2019 yilning yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 15210,0 mlrd. so‘mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 95,9 % ni tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmog‘ining ulushi 0,7 % ni, o‘rta-yuqori texnologiyali 26,6 % ni, o‘rta-quyi texnologiyali - 11,0 % ni va quyi texnologiyali - 57,6 % ni tashkil etdi.

| *shundan:* | ***Mlrd. so‘m*** | ***Jamiga nisbatan ulushi %*** |
|---|---|---|
| oziq–ovqat mahsulotlari, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarish | 6142,0 | 38,7 |
| to‘qimachilik mahsulotlari, kiyim va teri mahsulotlarini ishlab chiqarish | 2678,2 | 16,9 |
| mashina va uskunalarni ishlab chiqarish, ta’mirlash va o‘rnatish, avtotransport vositalari, treylerlar va yarim pritseplar va boshqa tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish | 4234,2 | 26,7 |
| kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish | 434,4 | 2,7 |
| metallurgiya sanoati | 755,7 | 4,8 |
| koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish | 7,5 | 0,05 |
| yog‘och va po‘kak buyumlar, pohol va to‘qish uchun materiallardan buyumlar, qog‘oz va qog‘oz mahsulotlari, mebel ishlab chiqarish | 221,5 | 1,4 |
| yozilgan materiallarni nashr qilish va aks ettirish | 35,7 | 0,2 |
| asosiy farmatsevtika mahsulotlari va preparatlarini ishlab chiqarish | 87,2 | 0,5 |
| boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish | 613,6 | 3,9 |



**Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash**

Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 452,8 mlrd. so‘mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 2,9 % ni) tashkil etdi.

| *shundan:* | ***Mlrd. so‘m*** | ***Jamiga nisbatan ulushi %*** |
|---|---|---|
| elektr energiyasini ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug‘ uzatish va havoni konditsiyalash tizimlari | 452,8 | 100 |



**Suv bilan ta’minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish.**

Suv bilan ta’minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 86,0 mlrd. so‘mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,5 % ni) tashkil etdi.

| *shundan:* | ***Mlrd. so‘m*** | ***Jamiga nisbatan ulushi %*** |
|---|---|---|
| Suvni yig‘ish, qayta ishlash va taqsimlash | 62,8 | 73,0 |
| Chiqindilarni yig‘ish, ishlov berish, yo‘qotish, utilizatsiya qilish | 23,2 | 30,0 |

**Ishlab chiqarishning texnologik tarkibi bo‘yicha ishlab chiqaradigan sanoat tarkibi**

*(yanvar-dekabr)*




Ishlab chıqaradıgan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmog‘ining ulushi 110,4 mlrd.so‘m (jamiga nisbatan ulushi 0,7 %), o’rta-yuqori texnologiyali 4226,4 mlrd. so’m (jamiga nisbatan ulushi 26,6 %), o’rta-quyi texnologiyali 1741,8 mlrd. so’m (jamiga nisbatan ulushi 11,0 %), qo‘yi texnologiyali 9131,4 mlrd. so’m (jamiga nisbatan ulushi 57,6 %) ni tashkil etdi.

**Iste’mol tovarlari ishlab chiqarish**



Tayyor mahsulotlar turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida iste’mol tovarlar ishlab chiqarish hajmi 9572,4 mlrd. so‘mni tashkil etdi va 2018 yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan 2,8 % ga o‘sishini ta’minladi, jami sanoatdagi ulushi esa 60,3 % ni tashkil etdi.

**2019-yilning yanvar-dekabr oylarida iste’mol tovarlari ishlab chiqarish tarkibi**

**2019 yil yanvar-dekabr** **2018 yil yanvar-dekabr**




2018 yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan iste’mol tovarlari tarkibida nooziq-ovqat tovarlari ishlab chiqarish ulushining 67,8 % dan 2019-yil yanvar-dekabr oyida 65,3 % ga pasayishi kuzatilmoqda.

Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida sharob va aroq mahsulotlari hamda pivo 7,1 % ni (2018-yil yanvar- dekabr oylarida 3,1 %) tashkil etdi.

## 2019 yil yanvar-dekabr oylarida hududlar bo‘yicha iste’mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi (mlrd. so‘m)




## Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlari o‘sish sur’ati






| Sanoat mahsulotlari | 2018 yil yanvar-dekabrda ishlab chiqarilgan | 2019 yil yanvar-dekabrda ishlab chiqarilgan |
|---|---|---|
| **Portlandsement, t** | **1877,4** | **10479,0** |
| Tabiiy qum, ming t. | 8,4 | 21,1 |
| **O'simlik yog'i, t** | **11539,6** | **11549,0** |
| Tamaki (segaret), mln.dona | 10397,0 | 10386,0 |
| **Asfalt, ming t.** | **55,0** | **106,5** |
| Yigirilgan ip, t | 500,6 | 1463,7 |
| **Xo'jalik sovuni, t** | **6019,0** | **5580,0** |
| Mineral va kimyoviy o'g'itlar chiqarish ming t. | 66,3 | 56,3 |
| **Paxta tolasi, ming t.** | **65,0** | **21,4** |

Bunga ko‘ra ishlab chiqarish sanoatida o‘tgan yilning mos davriga nisbatan qiyoslaganda portlandsement - 5,6 m. Yigirilgan ip – 2,9 m. ga, Asfalt – 1,9 m. Tabiiy qum - 2,5 m ga o‘sishi hisoblandi.

**Samarqand viloyatida ishlab chiqarish hajmida hududlar sanoat mahsulotlarining ulushi, %**



**Hududlar bo‘yicha sanoat ishlab chiqarish fizik hajm indeksi**
(*2019 yil yanvar-dekabr oylarida 2018 yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan, %*)




## Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar mahsulotlarining ishlab chiqarilishi

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 6571,1 mlrd. so‘mlik mahsulot ishlab chiqarilib, jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi 41,4 % ni tashkil etdi.

## Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalarning umumiy sanoat mahsulotlari hajmidagi ulushi, %

**2018 yil yanvar- dekabr** **2019 yil yanvar-dekabr**




## 2019 yil yanvar-dekabr oylarida hududlar bo‘yicha sanoat ishlab chiqarish hajmi (mlrd. so‘m)



Viloyatda sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko‘pi Samarqand shahri (viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmining 42,9 %), Jomboy (15,7 %), Urgut hamda Samarqand (7,9 %) va Toyloq (7,1 %) tumanlari hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.

**Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning hissasi**

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik sub’yektlari tomonidan 8527,0 mlrd. so‘mlik mahsulot ishlab chiqarilib, jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi 53,8 % ni tashkil etdi.

**2019 yilning yanvar-dekabr oylarida hududlar bo‘yicha yirik korxonalar va kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi, %.**



Hududlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Nurobod tumanida (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 100,0 %), Qo‘shrabot (100,0 %), Samarqand (99,5 %), Urgut hamda Oqdaryo (97,2 %) va Toyloq (88,6 %) tumanlarida kuzatildi.

Shu bilan birga, eng kichik ulush, Narpay (24,9 %), Kattaqo‘rg‘on shahri (24,0 %) va Jomboy (11,6 %) tumanlarida kuzatildi.

## Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha sanoat mahsuloti turlarini ishlab chiqarish

*(yirik korxonalar bo‘yicha)*

**Qayta ishlash sanoati**

| *Sanoat mahsulotlari nomi* | | *O‘lchov birligi* | *2019-yil yanvar-dekabr* | *O‘sish sur’ati, %* |
|---|---|---|---|---|
| Tarkibida ikkita ta’minlovchi element–azot va fosfor bo’lgan mineral yoki kimyoviy o’g’itlar |  | *ming tonna* | 25,1 | 87,0 |
| Aroq |  | *ming l. 100% spirt* | 534,7 | 34,6 |
| Uzum vinosi yoki uzum turpini distillash natijasida olingan spirt nastoykalari, konyak spirtidan tashqari |  | *ming l. 100% spirt* | 253,1 | 78,5 |
| Uzum vinosi |  | *ming l.* | 994,1 | 82,5 |
| Pivo (pivo ishlab chiqarish chiqindilardan tashqari) |  | *ming l.* | 27570,0 | 93,3 |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| Yumshoq bug‘doy va spelta uni |  | ming *tn.* | 149,7 | 96,0 |
| Birinchi navli undan tayyorlangan bug‘doy noni (buxanka), og‘irligi 600 g. |  | *tn.* | 658,0 | 79,6 |
| Tozalangan paxta yog‘i va uning fraksiyalari (kimyoviy modifikatsiya qilinganlaridan tashqari) |  | *tn.* | 9821,0 | 91,0 |
| Paxta tolasi |  | *ming tn.* | 21,4 | 32,9 |
| Paxta chigiti |  | *ming tn.* | 34,9 | 39,8 |
| Paxta tiviti (lint) |  | *tn.* | 1867,4 | 37,9 |

**Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash**

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| Issiqlik elektr markazlari (IEM) ishlab chiqargan elektr energiyasi |  | *mln.kVt/s* | 80,2 | 106,5 |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| Bug‘ va issiq suv (issiqlik energiyasi) |  | *ming Gkal.* | 91,5 | 143,9 ↑ |

**Faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari**

Bugungi kunda viloyatda 5976 ta sanoat korxonalari faoliyat ko‘rsatmoqda, shundan 1489 tasi (mavjud korxonalar umumiy sonining 24,9 %) Samarqand shahriga, 862 tasi (14,4%) Urgut tumaniga, 532 tasi (8,9 %) Samarqand tumaniga to‘g‘ri kelmoqda.

**Faoliyat yuritayotgan sanoat korxonalari soni, birlik**
(2020 yil 1 yanvar holatiga)




2019 yil yanvar-dekabr oylarida viloyatda 1971 ta yangi sanoat korxonalari tashkil etildi va tashkil etilganlarning eng ko‘pi Samarqand shahri (17,1 foiz), Urgut (11,7), Pastdarg‘om (9,8 foiz), Samarqand (7,9 foiz) tumanlariga to‘g‘ri keladi.

**Yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari soni, birlik**

(2020 yil 1 yanvar holatiga)



## Tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliylashtirish Dasturining amalga oshirilishi

Viloyatda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning rivojlanishiga tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliylashtirish Dasturining amalga oshirilishi o‘z ta’sirini ko‘rsatdi. Mazkur dastur asosida kiritilgan 40 ta loyiha bo‘yicha 587,5 mlrd. so‘mlik mahsulotlar ishlab chiqarilgan bo‘lib, 8,5 mln. AQSh dollari miqdorida mahalliylashtirilgan mahsulotlar eksport qilindi va 876 ta yangi ish o‘rinlar yaratildi.

O‘tgan yilning mos davri bilan taqqoslaganda 2019 yil yanvar-dekabr oylarida yangi tashkil etilgan ish o‘rinlari soni 9,9 martaga oshdi. Shu bilan birga, 2018 yil yanvar- dekabrga nisbatan mahalliylashtirilgan mahsulotlarni ishlab chiqarish va eksport hajmining 2,6 martaga ko‘payishi kuzatildi.

**Tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliylashtirish dasturining asosiy ko‘rsatkichlari**
**(yanvar-dekabr oylari uchun)**

| | 2018 yil | 2019 yil |
|---|---|---|
| Loyihalar soni, birlik | 35 | 40 |
| Korxonalar soni, birlik | 31 | 20 |
| Ishlab chiqarish hajmi, mlrd. so‘m | 346,7 | 587,5 |
| Eksportga qilingan mahalliylashtirilgan mahsulot hajmi, mln. AQSh doll. | 3,3 | 8,5 |
| Yaratilgan yangi ish o‘rinlari, birlik | 88 | 876 |




Sanoat statistikasi bo'limi
E.A.Qo'qonov
Tel: (66) 235-06-80